

YOSHLAR HAYOTIDA VIRTUALLASHUV SABABLARI VA OMILLARI.

Madaminjonova Ruhshona
Andijon davlat pedagogika instituti
fizika va astronomiya yo`nalishi
2-bosqich talabasi

Annotatsiya:Maqolada yoshlar, xususan, o’smirlik davridagi bolalar virtuallashuv sabablari, omillari va bartaraf etish yo’llari haqida so’z boradi.

Kalit so‘zlar:Virtual olam, akseleratsiya, ma’naviy tahdid, dunyoqarash, ijtimoiylashuv, o’smirlik, ta’lim, tarbiya.

Insoniyat ta’rixida aloqa almashinuv vositasi hisoblanmish nutqning rivojlanishi– bu odamda hayvonot olamidan farqli ravishda odamiylik tuyg’ularining shakllanishiga xizmat qildi. O’zaro munosabat orqali nafaqat axborot almashish, balki fikr va hissiy barqarorlik ham ta’minlanadi. Ammo axborot almashinuv jarayoni inson aql kuchining takomillashuvi natijasida yangi ko’rinishlarni kasb etdi. Oddiygina xat orqali uzoqdagi yaqinlar bilan qilingan muloqot, bugungi kunga kelib virtual olamni yaratdi. Bu olam hozirda shu darajada rivojlandiki, insoniyat o’z olamidan kechib, virtual dunyoda o’zini baxtiyor his qilmoqda. Endilikda bolalar bolalikning beg’ubor pallalarini ekranlarga termulish bilan o’tkazib yubormoqdalar. Hali ijtimoiy dunyoqarash, hayotiy hodisalarni tahlil qilish ko’nikmasigaega bo’lmagan bolalarni virtual olam turli yo’llar orqali o’z domiga tortib ketmoqda. Bugungi kunda yoshlar hayotida virtuallashuv nihoyatda keng ommalashib bormoqda. Internet tarmoqlari turlari shunchalik ko’pki, ulardan foydalanish uchun har bir odamda imkoniyatlar yetarlicha mavjud. Chunki har bir inson uchun hozirgi paytda smartfon o’zining ikkinchi yarmiga aylanib ulgurgan. Smartfonlar xuddi suvhavodek ehtiyoj manbai hisoblanadi. Har bir oilada o’sib kelayotgan farzandlar uyali aloqa vositalaridan foydalanishni yaxshi tushunadilar va qiziqishlari ham shunga yarasha yuqori suratlarni tashkil qiladi. Bularning barchasi bolalar rivojlanish ko’rsatkichlarini oshishiga xizmat qilibgina qolmay, balki ma’naviy kamolotiga salbiy ta’sirlarni vujudga keltirmoqda. “Ma’naviy tahdid” deb yuritiluvchi holatlarga ko’plab misollar mavjud. Bu tushunchaning tub mohiyati shundaki, ma’naviy tahdid bu –insonni o’ziga sezilmagan holda ruhiy olamini tubanlashuviga yetaklaydi. Xususan, I.Karimov shunday ta’rif bergan: “ma’naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e’tiqodidan qat’iy nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi erkin inson bo’lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko’zda tutadigan mafkuraviy, g’oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutishi lozim”

Shularni inobatga olgan holda yoshlarni virtual olam qurboniga aylanishini oldini olish har bir ota-onadan ta’lim-tarbiyada ogihlikka chorlaydi. Buning uchun esa, avvalo, g’oyaviy ongni yot unsurlardan tozalash, yangi texnologiyalarni hayotga tatbiq etishda ulardan kelayotgan foyda va zarar nisbatini aniq baholay olish talab qilinadi. Internetning foydali tomonlari juda ko’p va uni XXI asrda tanqid ostiga olib bo’lmaydi. Chunki, internet orqali butun dunyoda axborot almashinuv jarayoni amalga oshirilmoqda. Masofaviy tarzda ta’lim olish jarayonidan tortib muhim strategik ahamiyat kasb etuvchi butunjahon doirasidagi loyihalar taqdimotlari amalga oshirilmoqda. Bugungi zamon yoshlarini internet tarmoqlaridan foydalanish jarayonini nazorat qilish orqali hech qanday tarbiyaviy natijaga erishish mumkin emas. Shuning uchun e’tiborni faqatgina yoshlar ma’naviyatini o’stirish, e’tiqodini mustahkamlash, yot xurujlardan mustaqil

himoyalana olish ko’nikmasini shakllantirishga qaratish kerak bo’ladi. Internetning yoshlar hayot tarzidagi salbiy jihatlari quyidagicha:

-real muloqotning virtual shaklga aylanishi;-internet o’yinlariga bog’lanib qolish;-sog’likka zararli tomonlarining kengligi;-noxolis ma’lumotlarning mavjudligi;

-pornografik saytlar;-inson ongiga ta’sir etadigan saytlar (sektalar, terroristlar, pul bilan o’ynaluvchi virtual o’yinlar, internet mahsulotlari va h.k.) -turli giyohvand va terroristik klublar, o’z joniga qasd qilishga olib boruvchi, o’smirlar ruhiyati buzilishiga sabab bo’luvchi virtual saytlar kabilardir. Bugungi zamon har bir ota-onadan pedagog-psixolog bo’lishni talab etmoqda. Chunki yosh avlod barkamol rivojlanishiga ta’sir qiluvchi salbiy omillar shunchalik turli-tumanki, ulardan bolalarni himoyalash har bir ota-onadan doimiy hushyorlikni talab qiladi.

Pedagogika nima? Odamni insonga aylantirish ilmi. Fanlar orasida eng qadimiysi. Pedagogikaning ta’rixi yer yuzida birinchi go’dak yig’isi eshitilgan kundan boshlangan. U farzandlarimizni o’qitadi, tarbiyalaydi, O’zbekistonimizni –ozod va obod Vatan, hayotimizni –erkin va farovon qilishga o’rgatadi. Pedagogikada akseleratsiya jarayoni pedagogik nuqtai nazardan tezlashuvning bolalar tarbiyasidagi aqliy rivojlanishni nazarda tutadi.[3] Aqliy rivojlanishning o’ta ketgan tezlashuvi esa tarbiyasi qiyin o’smirlar guruhini vujudga keltiradi. Bunday yoshlar orasida virtual olamga chuqur kirib qolganlar tarbiyasi bahstlab mavzuni hamda yechimini talab etayotgan muammo sifatida turadi. Virtual olam ishtirokchilari ta’lim-tarbiya jarayonida murakkab qiyinchiliklar tug’diradilar. Asosan ular xulq-atvorida egoistiklik va bilishga nisbatan befarqlik kuchli namoyon bo’lib boradi. Psixologik nuqtai nazarga ko’ra tarbiyasi qiyin o’smirlar bir necha turlarga bo’linib o’rganiladi. Xususan E.G’oziyev tadqiqotlarida murakkab xulq-atvoriga ega o’smirlar to’rt xil tipga ajratilib tushuntirilgan.[4] Biz esa virtuallashuv sabablari ham aynan shu tiplarga mansub bolalar xulqi bilan bog’liq ekanligini kuzatilishimiz mumkin. G’oziyev birinchi turdagi tarbiyasi qiyin o’smirlarni, bunday bolalar orsizlar yoki subutsizlar deb ataydi. Ular o’zlari qilayotgan xatoni bilib, , ya’ni virtual olam (odnoklassniki.ru, facebook, Telegram, Instagram, You Tube kabi tarmoqlar)da juda ko’p vaqtlari o’tayotganligini anglab turadilar, lekin shunday zid hatti-harakatlardan qaytmaydilar. Ular jamoa orasida hamisha o’z taassurotlarini boshqalarga bildirishga va shu jamoani tarmoqlarga jalb qilishni istaydilar. Ja’miyatdagi qonun-qoidalarni hamisha tanqid ostiga oladilar o’z g’oyalarini ko’proq do’stlari orasida tarqatib ularni o’z orqasidan yurishga da’vat etadilar. Bunday bolalar ishonch qozonish va obro’ orttirish maqsadida yolg’on gapiradilar, sekin asta virtual olamdan ajrala olmay qolishlari mumkin. Deviant xulq-atvor ko’rinishlari bunday bolalarda tezroq va aniqroq ko’rina boshlaydi. Bunday bolalar birovlarini xo’rlash, azob berishdan rohatlana boslaydilar. Ma’lum guruhlar tuzib, ularga rahbarlik qilib kichik jinoiy ishlarga aralasha boshlashlari mumkin. Shu bois kichik o’smirlik davridan boshlab virtual olamda “sayr” qilishni boshlagan bolalarni aniqlash va tegishli choralarni ko’rish zarur. Avvalambor ota-ona bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, bola bo’sh vaqtlarini qanday o’tkazayotganini qat’iy tekshirish, ularni foydali mehnatga jalb qilish kabilarga e’tibor qaratiladi. Boladagi o’zgarishlarni uning ota-onasiga to’g’ri tushuntirish, holat sabablarini to’g’ri aniqlash zarur. Chunki boladagi salbiy sifatlarning paydo bo’lishida birinchi o’rinda irsiy omillar turadi. Ota-onadagi bilimsizlik va tarbiyasizlik bola taraqqiyotiga o’z ta’sirini o’tkazmay qolmaydi. Tarbiyaning ilk bo’g’ini bo’lmish oila nosog’lom bo’lsa, undagi jarayonlar atrof-muhitga ham o’z ta’sirini o’tkazmay qolmaydi. Haqiqiy pedagog boladagi o’zgarishlarni o’z vaqtida angelaydi va uning sabablarini ham to’g’ri baholay oladi. Ota-onadan yetarli natija olinmagan taqdirda mahalla yig’ini faoliyatini boshlaydi. Tushuntirish ishlari, foydali maslahatlar, hayotiy faktlar va turli mashg’ulotlarga jalb qilishi mumkin. Bunda eng

to’g’ri yo’l o’smir xatosini o’zi anglab yetishiga va bu yo’ldan faqat o’z xohishi bilan qaytishiga erishish hisoblanadi.

Bunda unga o’ziga bildirmagan holda u bilan psixologik suhbat o’tkazish, uning hayot yo’liga yaqin bo’lgan videolavha yoki badiiy asar bilan tanishtirish, uning qiziqishlarini bilish (ba’zan qobilyatni aniqlash), shuningdek uning hayot, yashash to’g’risidagi qarashlarini aniqlash kerak bo’ladi. O’smirlar bo’sh vaqtini to’g’ri tashkil etish, ularda vatanga, ota-ona, yor-u do’stiga nisbatan muhabbat kabi yuksak insoniy sifatlarni tarkib toptirish, ular ongiga yot g’oyalar kirib qolishidan saqlash maqsadida iloji boricha adabiy olam bilan oshno etib borish, turli-tuman to’garaklar fa’oliyatini takomillashtirish, eng muhimi ular qiziqishlarini foydali tarmoqlardan foydalanish, yangi innovatsion g’oyalar yaratish, turli tanlovlarda o’zining imkoniyatlarini sinab ko’rish ular tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Pedagoglar va ota-onalar hamkorligida bunday ishlarni amalga oshirish eng yaxshi natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

- 1.I. Karimov, Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch, -Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008, 176 bet
- 2.M.Quronov, Bolam baxtli bo’lsin desangiz, -Toshkent, “Ma’naviyat”, 2014, 201 bet
- 3.www.arxiv.uz Akseleratsiya
- 4.Goziev M. Umumiy psixologiya, Toshkent, 2004 yil